

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.11.2021.T.141.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

ABDISALOMOV MIRZO SAIDOVICH

**CHIGIT CHIQRISH QUVURIDAGI TESHIKLAR VA HARAKAT
UZATISH TIZIMI PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническому наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Abdisalomov Mirzo Saidovich

Chigit chiqarish quvuridagi teshiklar va harakat uzatish tizimi parametrlarini
asoslash..... 3

Абдисаломов Мирзо Саидович

Обоснование параметров перфорации и привода семяотводящей трубы
..... 24

Abdisalomov Mirzo Saidovich

Justification of parameters of perforation and drive of the seed pipe 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.11.2021.T.141.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

ABDISALOMOV MIRZO SAIDOVICH

**CHIGIT CHIQRISH QUVURIDAGI TESHIKLAR VA HARAKAT
UZATISH TIZIMI PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T2656 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) "Tolali ekinlar ilmiy tadqiqot instituti" huzuridagi ilmiy Kengash web-sahifasida (www.paxtasanoatilm.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxammadiev Davlat Mustafaevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rosulov Ruzimurad Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rayimkulov Jakhongir Kulmurodovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilotlar:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "8" aprel soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITL. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yxatdan o'tgan 39-son). 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITL. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "28" mart kuni tarqatildi.

(2025 yil "28" mart 40-raqamli reysr bayonnomasi).



T.M. Quliyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., prof.

M.R. Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., k.i.x.

R.Sh. Sulaymanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxtani dastlabki qayta ishlash uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida 24,7 million tonna paxta yetishtirilishini va paxta bozorining hajmi 2024 yilda 51,32 milliard dollarga baholanishini va 2024-2029 yillarda yillik o'sish sur'ati (CAGR) 4,56 foizni tashkil etishini, 2029 yilga kelib esa 64,15 milliard dollarga yetishi kutilmoqda¹. Bu paxtani tozalashni sifatli amalga oshiradigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan paxtani tozalash uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta va uning mahsulotlarini tabiiy sifatini saqlash va raqobatbardoshligini oshirishni uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxtani dastlabki qayta ishlash bosqichida – paxtadan tolani ajratish jarayonida yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejashni amalga oshiradigan energiya-resurstejamkor mashinani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun paxta tozalash texnologik mashinalarini modernizatsiya qilish asosida paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «30-maqсад: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish.»² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, arrali tola ajratgich chigit chiqarish quvuridagi teshiklar va harakat uzatish tizimi parametrlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvarda qabul qilingan "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-53-sonli Farmoni, 2021-yil 23-fevraldagi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi" nizomni tasdiqlash haqida" 93-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2017-yil 28-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3408 sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining

¹ <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/cotton-trade-analysis>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni - <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2018-yil 31-martdagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori, shuningdek mazkur faoliyatga bog'liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifa va masalalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda izlanishlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Arrali tola ajratgich ish unumdorligini oshirish va tola tabiiy sifatlarini saqlash uchun chigitni qo'shimcha chiqarishga yordam beruvchi chigit chiqarish quvurlar konstruksiyalarini o'rganish bo'yicha jahondagi yirik olimlar, jumladan C.B. Armijo va S.E. Hughs uskunalarni qayta jihozlashga, A.C. Griffin yuqori mahsuldorlikda tola sifatini o'rganishga muhim hissa qo'shgan. G.A. Holt muhandislik innovatsiyalariga yo'naltirilgan ishlanmalarni taklif etgan. G.J. Mangialardi qayta ishlash parametrlarini (namlik, ta'minlash tezligi) nazorat qilish bo'yicha tadqiqotlari olib borgan. Normativ va amaliy jihatlar T.D.Valco tomonidan qamrab olingan.

Amerikaning "Continental Eagle" kompaniyasi qo'shimcha chigit chiqarish qurilmalari (161, 201 modellar) yoki ularsiz (141) bo'lgan arrali tola ajratgichlarni ishlab chiqaradi. Zamonaviy konstruksiyalarda 1879 yildagi ikki kamerali Ellipse tola ajratgich printsiipi qo'llaniladi, bu AQSh, Hindiston va Xitoy kompaniyalari modellarida dolzarb bo'lib qolmoqda. Masalan, MY-171 mashinasi energiya sarfini kamaytirish va ishchi qismlarning xizmat qilish muddatini ko'paytirishni ko'rsatdi.

Mashinaning dinamik modellari, shu jumladan elastik-dissipativ elementlar, V.N. Korshun, V.S. Popovich, R.E. Pestretsova. N.V. Loshchinin birliklarning dinamikasini variator bilan o'rgangan va Yu.S.Korneev boshqariladigan muftaning tezlashishini tahlil qildi. I.I. Vulfson qo'zg'alish parametrlarining tebranishlarga ta'sirini aniqlagan, muhandislik hisoblash usullarini taklif qilgan.

Mashina agregatlari dinamikasini modellashtirish va hisoblashning zamonaviy yondashuvlari Jozef Steinhauser, Milan Nad', I.I. Vulfson va D.M. Muxammadievlar rezonans zonalari va tabiiy chastotalarni aniqlash I.M. Babakov va N.N. Nikitinlar kritik rejimlarda ishlaganda mashinalarga zarar yetkazmaslik imkonini beradi. Ushbu yondashuv agregatlarning ishonchliligi va samaradorligini oshiradi.

Bir kamerali arrali tola ajratgichning ishlashiga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan. B.A.Levkovich tolaning tishlarda tutilishini yaxshilash va sirpanishini kamaytirish orqali arra ishlashi yaxshilanishi aniqlangan. G.I.Boldinskiy unumdorlikni aniq hisoblash formulasini ishlab chiqqan. B.I.Roganov ish kamerasini takomillashtirgan, uning hajmini oshirgan, bu esa xom ashyo valigining zichligini pasaytirgan.

D.A. Kotov va G.I. Boldinskiy 9 kg/soatgacha unumdorlik bilan chigitning qaytish koeffitsientini chigit taroqning holatiga qarab sozlash mumkinligini aniqlagan. A.Maqsudov va I.T.Maqsudovlar ish unumdorligining silindrning aylanish tezligi va xom ashyo valigi massasiga bog'liqligini, shuningdek, fartuk geometriyasining sifat va energiya samaradorligiga ta'sirini o'rganganlar.

T.Saidxo‘jayev arralararo masofani o‘zgartirmasdan hosildorlikning oshishi tola uzunligiga ta’sir qilmasligini, uning kamayishi esa chigit chiqarish sifatini yomonlashishini ko‘rsatdi. K.S.Sobirov yuqori sifatli tola olish uchun ikki bosqichli tola ajratishni taklif qilgan, ammo bu yondashuv jarayonni murakkablashtiradi.

Tadqiqotlar arrali tola ajratgichlarning samaradorligini oshirishning ikkita asosiy yo‘nalishi aniqlangan:

1. Ishchi kameraning konstuktsiyasini o‘zgartirish (hajmi, fartuk egriligi).

2. Energiya sarfini kamaytiradigan va ish unumdorligini oshiradigan diskli tezlatgichlardan foydalanish (D.A.Kotov, M.Tillaev, lummus).

G.I Boldinskiy formulasiga ko‘ra, arrali tola ajratgichlarning ish unumdorligi soatiga bir arra uchun 21,7 kg ga etadi. G.D.Djabarov, S.D.Baltabaev, D.A.Kotov, N.D.Solovyovlar asosiy samaradorlik omili arra tishlaridan foydalanish tezligi ekanligini aniqladilar, bu esa xom ashyo valigining aylanish tezligining oshishi bilan ortadi. N.K.Safarov aylanadigan quvurli chigit chiqarishli tola ajratgichni taklif qildi, bu ham hosildorlikni oshiradi.

Tolalarni ajratish tizimlari uchun uzatmalarni tahlil qilish, xususan, paxta sanoatida tola sifatini saqlab qolish uchun energiya samaradorligini optimallashtirish va mexanik kuchlanishni kamaytirish muhimligini ta’kidlaydi. Yuqori unumdorlikni tejamkor energiya iste’moli bilan birlashtirgan samarali uzatmalarni yaratish, shuningdek, tolaning shikastlanishini minimallashtirish uchun robotli echimlarni joriy qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Olib borilgan tahlil natijalari paxtani qayta ishlash, xususan resurstejamkor arrali tola ajratish ishchi kamerasi profilining ish unumiga ta’siri masalalari yetarli darajada o‘rganilmaganini ko‘rsatadi. Xorijda ishlab chiqarilgan arrali tola ajratgichlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy korxonalarda foydalanish imkonini bermaydi. Shu boisdan arrali tola ajratgich chigit chiqarish quvuridagi teshiklar va harakat uzatish tizimi parametrlarini asoslash katta ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA M.T O‘razboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Tola ajratish mashinasining chigitni chiqarish qurilmasidagi harakat uzatish tizimining muqobil ko‘rsatkichlarini nazariy va tajribaviy aniqlash» (2022-2024) amaliy mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtani dastlabki qayta ishlash texnologiyasi talablariga javob beruvchi resurstejamkor yangi texnologiyalar asosida takomillashgan arrali tola ajratgichning chigit chiqarish quvuridagi teshiklar va harakat uzatish tizimi parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

arrali tola ajratgich mashinasi texnologik jarayonini tahlil qilish va shu mashina uchun yangi konstruksiyadagi chigit chiqarish quvuridagi teshiklar va harakat uzatish tizimi parametrlarini asoslash;

matematik modellar asosida taqsimlangan parametrli chigit chiqaruvchi qurilmaning mashina agregatining harakatini tadqiq qilish;

arrali tola ajratgich chigit chiqaruvchi qurilmasining uzal va qismlarini mustahkamlikka hisoblash;

chigit chiqarish quvuridagi teshiklar joylashuvi va harakat uzatish tizimining ish unumdorligi, chigitning mexanik shikastlanishi va energetik ko'rsatkichlarini tajribaviy asoslash;

paxtani dastlabki qayta ishlash texnologiyasi talablariga javob beruvchi resurstejamkor chigit chiqaruvchi qurilmali arrali tola ajratgich samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikadagi paxtaga dastlabki ishlov beruvchi arrali tola ajratgichning chigit chiqarish quvuri olingan.

Tadqiqotning predmetini arrali tola ajratgichning chigit chiqarish quvurining konstruksiyasi va texnologik ko'rsatkichlari, teshiklar joylashuv burchagi va quvur burchak tezliklari, paxtadan tola ajratish jarayoni rejimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida differensial tenglamalarni yechishning sonli Runge-Kutta, maqbul parametrlarni topishda Gauss-Zaydel, regressiya tenglamalari asosida muqobillashtirishning Nyuton, matematik statistikaning rejalashtirish va tajriba natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan. Teshikli quvur va shnekning egilishi, kuchga, mustahkamlik parametrlari va kritik aylanish tezligini (FEM) chekli elementlar usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

taqsimlangan parametrlarga asoslangan arrali tola ajratgich teshikli quvurning kritik quvvat sarfi, burchak tezlanishi, tezligi va buralishlari A.E.Levin va M.M.Sokolovlar tavsiya etgan xarakteristikalaridan foydalanib aniqlangan;

ko'chish ko'rinishidagi chekli elementlar usuli (FEM) yordamida teshikli quvur va shnekning mustahkamlik parametrlari va kritik aylanish tezliklari hisoblangan hamda egilish momentlari, ko'ndalang kuchlar, ko'ndalang siljish epyuralari qurilib, havfli kesimlari aniqlangan;

teshikli quvur qurilmasining harakat uzatish tizimi revers sxemali planetar reduktor bilan jihozlanishi uzatma gabarit o'lchamlarini 30% ga, og'irligini 25% ga kamaytirib, tishlarning mustahkamlik sharti – 2,96 marta zaxira bilan ta'minlanishi aniqlangan;

xom ashyo valigining zichligi 286 kg/m^3 , quvurning aylanish tezligi 350 min^{-1} va quvur yuzasidagi teshiklarning burchagi 62° da chigit chiqarish quvurining ish unumdorligi $332,15 \text{ kg/soat}$, chigitning mexanik shikastlanishi $1,2\%$ va quvvat sarfi $1,44 \text{ kVt}$ ni tashkil etishi ko'p omilli regression modellarini tahlillari asosida aniqlangan;

chigitdan tolani ajratish jarayonida ish unumdorligini oshirish va energiya sarfini kamaytirish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan arrali tola ajratgich mashinasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

taqsimlangan parametrlarga asoslangan arrali tola ajratgich teshikli quvurning konstruksiyasi, kinematikasi va harakat uzatish tizimining parametrlari asoslangan;

ko'chish ko'rinishidagi chekli elementlar usuli (FEM) yordamida teshikli quvur va shnekning dinamik ko'rsatkichlari va mustahkamlik parametrlarining o'zgarish traektoriyalari qurilgan;

tajribaviy tadqiqotlar natijasida xom ashyo valigining zichligi, quvurning aylanish tezligi va quvuri yuzasidagi teshiklar joylashuv burchagi chigit chiqarish quvurining maksimal ish unumdorligi, chigitning minimal mexanik shikastlanishi va minimal quvvat sarflari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy tamoyillar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning bir biriga mos kelishi, aprotatsiya va joriy qilinishdagi natijalar, shuningdek natijalarni solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlariga qiyosiy tahlili bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taqsimlangan parametrlarga asoslangan arrali tola ajratgich teshikli quvur va shnekning dinamik parametrlari va harakat uzatish tizimining mustahkamlik ko'rsatkichlari asoslanganligi hamda teshikli quvur va shnekning xavfli qismidagi tangensial kuchlanishlar va buralish burchagining qiymatlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxtadan tolani ajratish jarayonida xomashyo valigini chigit chiqarish moslamasining yaratilganligi hamda yuqori ish unumdorligida minimal mexanik shikastlanishni va minimal quvvat sarfini ta'minlashga qaratilgan arrali tola ajratgich teshikli quvur va shnekning kinematikasi, konstruksiyasi va texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani dastlabki qayta ishlash texnologiyasi talablariga javob beruvchi resurstejamkor arrali tola ajratgich teshikli quvur va shnekni ishlab chiqish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar asosida:

90 arrali tola ajratgichning takomillashtirilgan konstruksiyasi Toshkent viloyati Bo'ka tumani «APK Bo'ka» MChJ ga qarashli «Bo'ka paxta tozalash» korxonasi joriy etilgan («O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» uyushmasining 2023 yil 11 dekabrda 03/22-1009-son ma'lumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan 90 arrali tola ajratgich tatbiq etilishi hisobiga ish unumdorlikni 7,5% oshirishga va energiya sarfini 8,02% kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 8 ta ilmiy-texnik anjumanlarda shu jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida va 3 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 128 betni tashkil qiladi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Paxta xomashyosini arrali tola ajratish holatining ilmiy izlanishlari analitik tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida MDH va xorij arrali tola ajratish mashinalari konstruksiyalari tahlil qilingan. Mahalliy va chet elda ishlab chiqilgan tola ajratish jarayonida mavjud konstruksiyalari tahlili mahalliy ishlab chiqarilgan arrali tola ajratgichlar paxta tozalash korxonasi texnologik talablariga javob bera olmasligini ko'rsatdi.

Arrali tola ajratgichlarni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida ularning konstruksiyasini takomillashtirish zaxirasi mavjud ekanligu aniqlandi. Shu bilan birga, ish unumdorlikni oshirish va tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish uchun chigitni qo'shimcha chiqarish yordam beruvchi chigit chiqarish quvurlar konstruksiyalarini o'rganish lozim. Binobarin, keyingi izlanishlar chigit chiqarish quvurlarining konstruktiv va texnologik parametrlarini aniqlashga qaratilgan.

Dissertatsiyaning «**Taqsimlangan parametrli chigit chiqaruvchi qurilmali mashina agregatining harakatini tadqiq qilish**» ikkinchi bobida teshikli quvur va chigit chiqaruvchi shnekning dinamik parametrlarini o'rganish uchun mashina agregatini jamlangan va taqsimlangan parametrli quyi sistemalardan tashkil topgan sistema sifatida ko'rib chiqilgan (1-rasm).

Umumlashtirilgan koordinatalar sifatida φ_D va $\varphi_Q(x)$ qabul qilamiz. Kattaligi bo'yicha teng bo'lgan, yo'nalishi bo'yicha esa qarama-qarshi ($M_+ = -M_-$) bo'lgan ikkita reaktiv momentni M_- va M_+ qo'llab, $x=0$ kesma bilan chigitni chiqaruvchi qurilmaning dinamik modelini jamlangan va taqsimlangan quyi sistemalarga bo'lamiz. Bunda elementni «chiqishida» (o'ng tomonda) reaktiv momentni $\varphi_Q(x)$ burchak hisobidan musbat yo'nalishda, elementlarni «kirishida» reaktiv momentni (chap tomonda) manfiy qabul qilamiz.



1-rasm. Chigitni chiqaruvchi qurilmaning dinamik modeli

Umumlashtirilgan koordinatalar sifatida elektrodvigatel, teshikli quvur va chigit chiqaruvchi shnekning $\dot{\varphi}_D$, $\dot{\varphi}_Q$, $\dot{\varphi}_{Sh}$ aylanayotgan massalarining tezliklarini olamiz.

Reduktor qattiqligining yuqori qiymati tufayli shnekning momentlari va massasini \mathfrak{S}_{Sh} va M_{Sh} chigit chiqaruvchi quvurga keltiramiz:

$$\mathfrak{S}_{kel} = \mathfrak{S}_Q + \frac{\mathfrak{S}_{Sh}}{i_3^2} \quad M_{kel} = \frac{M_Q \cdot \dot{\varphi}_Q + M_{sh} \cdot \dot{\varphi}_{sh}^2}{\dot{\varphi}_Q} \quad (1)$$

Aniqlangan hadlarni Lagranj tenglamasiga qo'yib, chigit chiqaruvchi qurilmaning mashina agregati harakatining umumiy ko'rinishdagi differensial tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\left. \begin{aligned} \mathfrak{S}_D \cdot \ddot{\varphi}_D &= M_D - c_T \cdot (\varphi_D - i_T \cdot \varphi_Q) - e_T \cdot (\dot{\varphi}_D - i_T \cdot \dot{\varphi}_Q) \\ \mathfrak{S}_{kel} \cdot \ddot{\varphi}_Q &= c_T \cdot i_T \cdot (\varphi_D - i_T \cdot \varphi_Q) + e_T \cdot i_T \cdot (\dot{\varphi}_D - i_T \cdot \dot{\varphi}_Q) - M_{kel} \end{aligned} \right\}; \quad (2)$$

Asinxron elektrodvigatellarining dinamik xarakteristikalarini:

– A.Y.Levin tomonidan taklif etilgan asinxron dvigateli dinamik xarakteristikasi ko'rinishida hisobga olindi.

– Ishga tushirish va barqaror harakat paytida elektromagnit o'tish jarayonlarini hisobga oladigan M.M.Sokolov tomonidan taklif etilgan asinxron elektrodvigatelning dinamik, mexanik xarakteristikasi koordinata o'qlarining sinxron aylanish tezligida stator va rotorni ulanish oqimlari vektorini tashkil etuvchilarini o'z ichiga olgan differensial tenglamalar sistemasini foydalanildi:

4A112MV8Y3 asinxron dvigatelni pasport parametrlari va koeffisientlarini aniqlaymiz (hisoblashni unifikatsiyalash maqsadida qabul qilamiz): $N=3.0$ kVt – dvigatelni nominal quvvati; $n=735$ min⁻¹ – dvigatel rotori aylanishining nominal soni; $M_K=77.95344$ N·m – dvigatel rotori validagi kritik moment; $M_N= M_K/2=38.97672$ N·m – dvigatel rotori validagi nominal moment; $f_c= 50$ Gz – tarmoq chastotasi; $U_m=220$ B –fazali nominal kuchlanish; $\eta=0.83$ - dvigatelning FIK; $\cos\varphi=0.74$ – dvigatel quvvatining nominal koeffisienti; $\omega_o=78.53982$ c⁻¹- dvigatel rotori aylanishining sinxron chastotasi; $\omega_n=76.96902$ c⁻¹- dvigatel rotori aylanishining nominal chastotasi; $S_n=(\omega_o-\omega_n)/\omega_o=0.02$ - dvigatel sirpanishining nominal qiymati; $S_K=0.07464086$ - dvigatel sirpanishining kritik qiymati; $R=4$ – qutub juftliklari soni; $I_{n.f.}= 7.775324$ A - nominal fazali tok.

Eksperimentlar natijasida ishchi organlar uchun quyidagi inersiya momentlari olingan: shkivli dvigatel rotori uchun $\mathfrak{S}_D=0.0378$ kg·m², shkivli chigit chiqaruvchi qurilma uchun $\mathfrak{S}_Q=1.14$ kg·m² va shkivli shnek uchun $\mathfrak{S}_{Sh}=0.02989$ kg·m².

Teshikli quvurning burchak tezlanishini o'zgarish qonuniyatini hisobga olgan holda uni A.E.Levin tomonidan taklif etilgan xarakteristika bo'yicha quyidagi funksiya ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$\left\{ \begin{aligned} \frac{\partial^2 \varphi_Q}{\partial t^2} &= \ddot{\varphi}_Q(t) = 9 + 12 \cdot t - 19 e^{-0.7t} \cos 36t \quad \text{agar } t \in [0 - 1.41] \\ \frac{\partial^2 \varphi_Q}{\partial t^2} &= \ddot{\varphi}_Q(t) = 110 + 31.05(t - 0.09) - 60 e^{-0.2(t-0.09)} \sin(24.7(t - 0.09)) \quad \text{agar } t \in [1.41 - 1.67] \\ \frac{\partial^2 \varphi_Q}{\partial t^2} &= \ddot{\varphi}_Q(t) = 200 e^{-1.1(t-0.05)} \cos(-11.8(t - 0.05)) \quad \text{agar } t \in [1.67 - 6.0] \end{aligned} \right. \quad (3)$$


Teshikli quvurning burchak tezlanishini o'zgarish qonuniyatini hisobga olgan holda uni M.M.Sokolov tomonidan taklif etilgan xarakteristika bo'yicha quyidagi funksiya ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$\begin{cases} \frac{\partial^2 \varphi_0}{\partial t^2} = \ddot{\varphi}_0(t) = 0.75 e^{(2t+1.564)} \cos(72t + 1.564) & \text{agar } t \in [0 - 1.64] \\ \frac{\partial^2 \varphi_0}{\partial t^2} = \ddot{\varphi}_0(t) = 110 - 20 e^{0.5t} \sin(-40t) & \text{agar } t \in [1.64 - 1.88] \\ \frac{\partial^2 \varphi_0}{\partial t^2} = \ddot{\varphi}_0(t) = 200 e^{(-t+1.15)} \cos(-10(t+0.5)) & \text{agar } t \in [1.88 - 6.0] \end{cases} \quad (4)$$

Agar $\rho = \text{const}$ va $I(x) = \text{const} = 2.29 \cdot 10^{-6} \text{ m}^4$ hamda $x \in [0; l]$ bo'lsa uzunlik bo'yicha teshikli quvurga qo'yilgan umumlashgan, taqsimlangan kuch quyidagi ko'rinishga keladi:

$$Q(x) = \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi \omega_0 t + \varphi_{Q0})}{\pi R l} x, \quad (5)$$

bunda $M_{SR} = 35.67 \text{ N}\cdot\text{m}$; $M_0 = 3.33 \text{ N}\cdot\text{m}$; $\omega_0 = \pi \cdot 389/30 \text{ rad/s}$; t – vaqt, s ; $\varphi_{Q0} = 0$ – boshlang'ich faza; $l = 1.8995 \text{ m}$ – teshikli quvur uzunligi; $R = 0.0625 \text{ m}$ – teshikli quvur radiusi.



a)

b)

2-rasm. Teshikli quvurning burchak tezlanishining vaqt va quvur uzunligiga bog'liq holda o'zgarishi (a) $t \in [1.67; 6.0]$ da A.E.Levin bo'yicha; b) $t \in [1.88; 6.0]$ da M.M.Sokolov bo'yicha)

U holda (3) va (4) tenglamalarni hisobga olganda teshikli quvurning burchak o'zgarish qonuniyati quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


- A.E.Levin xarakteristikasi bo'yicha

$$\begin{cases} \varphi_{Qx} = \frac{1}{GI} \left(\rho \cdot (9 + 12 \cdot t - 19 e^{-0.7t} \cos 36t) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi \omega_0 t)}{6\pi R l} x^3 \right) & \text{agar } t \in [0; 0.41] \\ \varphi_{Qx} = \frac{1}{GI} \left(\rho \cdot (110 + 31.05(t - 0.09) - 60 e^{-0.2(t-0.09)} \sin(24.7(t-0.09))) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi \omega_0 t)}{6\pi R l} x^3 \right) & \text{agar } t \in [0.41; 1.67] \\ \varphi_{Qx} = \frac{1}{GI} \left(200 \rho e^{-1.1(t-0.05)} \cos(-11.8(t-0.05)) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi \omega_0 t)}{6\pi R l} x^3 \right) & \text{agar } t \in [1.67; 6.0] \end{cases} \quad (6)$$


- M.M.Sokolov xarakteristikasi bo'yicha

$$\begin{cases} \varphi_{\omega_x} = \frac{1}{GI} \left(\rho \cdot (0.75 e^{(2t+1.564)} \cos(72t+1.564)) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi\omega_0 t)}{6\pi R l} x^3 \right) \text{ agar } t \in [0; 1.64] \\ \varphi_{\omega_x} = \frac{1}{GI} \left(\rho \cdot (110 - 20 e^{0.5t} \sin(-40t)) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi\omega_0 t)}{6\pi R l} x^3 \right) \text{ agar } t \in [1.64; 1.88] \\ \varphi_{\omega_x} = \frac{1}{GI} \left(200 \rho e^{-(t+1.15)} \cos(-10(t+0.5)) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{SR} + M_0 \cos(\pi\omega_0 t)}{6\pi R l} x^3 \right) \text{ agar } t \in [1.88; 6.0] \end{cases} \quad (7)$$

(6-8) tenglamalar echimi arrali tola ajratgichning taqsimlangan parametrlari teshikli quvurning aylanma tebranishlari dinamikasini o'rganish imkonini berdi (2-4 rasmlar).




a)




b)

3-rasm. Teshikli quvurning burchak tezlanishining vaqt va quvur uzunligiga bog'liq holda o'zgarishi (a- $t \in [1.67; 6.0]$ da A.E.Levin bo'yicha; b) $t \in [1.88; 6.0]$ da M.M.Sokolov bo'yicha)




a)




b)

4-rasm. Teshikli quvurning nisbiy aylanish burchagining vaqt va quvur uzunligiga bog'liq holda o'zgarishi (a- A.E.Levin bo'yicha; b) M.M.Sokolov bo'yicha)




a)



b)

5-rasm. Teshikli quvurning aylanishidagi aylanish burchagining vaqt funksiyasi sifatida quvur uzunligiga bog'liq holda o'zgarishi (a-A.E.Levin bo'yicha; b) M.M.Sokolov bo'yicha)

Teshikli quvurning aylanishidagi nisbiy aylanish burchagi (6- rasm) va teshikli quvurning burchak aylanishining (5 va 6- rasmlar) o'zgarishi grafigi quvur uzunligiga bog'liq holda qurilgan.



6-rasm. Teshikli quvurning aylanishidagi aylanish burchagining valning uzunligiga bog'liq holda o'zgarishi (a- $t=1.87$ s da A.E.Levin bo'yicha; b) $t=1.6$ s da M.M.Sokolov bo'yicha)

Qurilgan grafiklar (5-6- rasmlar) teshikli quvurning nisbiy burulish burchagi va burulish burchagining maksimal qiymatlarini aniqlashga imkon berdi, ya'ni mos ravishda A.E.Levin bo'yicha $0.057^\circ/m$ va 0.03° , M.M.Sokolov bo'yicha es $0.067^\circ/m$ va 0.04° .

Dissertatsiyaning uchinchi «Arrali tola ajratgich chigit chiqaruvchi qurilmasining uzal va qismlarining mustahkamlik hisoblari» bobida chigit chiqaruvchi qurilmaning matematik modellashtirishni qo'llash orqali o'qqa nisbatan egilish, ko'ndalang kuchlar va eguvchi moment epyuralarini ko'rish, ularning aylanishining kritik chastotasini aniqlash va chigit chiqaruvchi qurilmaning aylanishida mustahkamlikka hisoblash natijalari keltirilgan.

Chigit chiqaruvchi qurilmasining statik hisoblash usulini ifodalaymiz. Hisoblash oltita erkinlik darajasiga ega bo'lgan balkali elementdan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. Bu element balkali chekli elementni va bir o'qli kuchlanganlik holati chekli elementini yig'ish orqali quriladi.

Balkali chekli element qattiqligi matritsasi tuzishni ko'rib chiqamiz.

Statik yuklamalar bilan vallarni siljishi o'rtasidagi egilishdagi bog'liqlikni egilishdagi energetik funksionalni deb hisoblab olgan holda aniqlash mumkin.

$$I = \frac{1}{2} \int_0^l \left[EI \left(\frac{d^2 w}{dx^2} \right)^2 - 2f(x)w \right] dx, \quad (8)$$

bu yerda E – elastiklik moduli, MPa ; I – ko'ndalang kesimning inersiya momenti, m^4 ; f – uzunlik birligiga to'g'ri keladigan taqsimlangan yuklama, kg/m ; w – ko'ndalang kesim, m^2 ; x – quvur va shnek uzunligi, m .

Bitta element uchun tashqi kuchlar va siljishlar o'rtasidagi munosabatga ega bo'lgan, har qanday murakkab (tarkibiy) sterjenlar uchun ixtiyoriy masalalarni yechish mumkin. (k) matritsa elementning qattiqlik matritsasi deyiladi. Endi balkali va bir o'qli elementlarning matritsalarini birlashtirib, chigit chiqaruvchi qurilmani hisoblash matritsasini hosil qilamiz.


Dasturda chekli elementlar usuli ishlatilgan. Chekli element sterjenli 2 ta yassi tugunli element bo‘lib, uning har bir tugunida ikki erkinlik darajasi.

Dasturning birinchi bosqichida statik hisoblash uchun boshlang‘ich ma‘lumotlar yoziladi.


Ikkinchi bosqichda quyidagi ishlarni bajaradigan dasturi ishlatiladi:

- 1) ma‘lumotlar kiritiladi va qattqlik matritsasi tuziladi;
- 2) chiziqli tenglamalar sistemasi hisoblanadi;
- 3) moment va ko‘ndalang kesim epyuralari ko‘riladi.

Hisoblash natijalari 7 – 9 rasmlarda keltirilgan.



a) $y_{\max}=9,42 \cdot 10^{-6} \text{ m}$, $X_{\max}=0,855 \text{ m}$




b) $y_{\max}=1,12 \cdot 10^{-4} \text{ m}$, $X_{\max}=0,998 \text{ m}$

7–rasm. Teshikli quvur (a) va shnekning (b) egilish epyurasi



a) $M_{\min}=-2,06 \text{ N m}$, $X_{\min}=1,745 \text{ m}$, $M_{\max}=6,28 \text{ N m}$, $X_{\max}=0,8189 \text{ m}$




b) $M_{\min}=-0,011 \text{ N m}$, $X_{\min}=0,0396 \text{ m}$, $M_{\max}=3,35 \text{ N m}$, $X_{\max}=0,998 \text{ m}$


8–rasm. Teshikli quvur (a) va shnekning (b) egilish momentlarining epyurasi

Ko‘chish ko‘rinishidagi chekli elementlar usuli (FEM) yordamida teshikli quvur va shnekning ta’sir etuvchi kuchlarga, mustahkamlik parametrlari va kritik aylanish tezliklarini hisoblash amalga oshirildi. Teshikli quvur va shnekning ishlashi uchun mustahkamlik shartlarini ta’minlashda egilish momentlari, ko‘ndalang kuchlar, ko‘ndalang siljish diagrammalari tuzildi va ularning ekstremal qiymatlari mos ravishda $l_q=1,8995 \text{ m}$ va $l_{sh}=1,9669 \text{ m}$ uzunliklarda joylashganligi aniqlandi. Masalan, egilish momentining maksimal qiymatlari - $6,28 \text{ N m}$ ($X_q=0,8189 \text{ m}$) va $3,35 \text{ N m}$ ($X_{sh}=0,998 \text{ m}$), ko‘ndalang kuchi - $18,31 \text{ N}$ ($X_q=0,03 \text{ m}$) va $7,61 \text{ N}$ ($X_{sh}=0,044 \text{ m}$), ko‘ndalang siljish - $y_{\max}=1,12 \cdot 10^{-4} \text{ m}$ ($X_{\max}=0,998 \text{ m}$) va $y_{\max}=9,42 \cdot 10^{-6} \text{ m}$ ($X_{\max}=0,855 \text{ m}$).

Ikkinchisi ruxsat etilgan (0,3 mm) qiymatdan mos ravishda 2 va karrali kam ekanligi aniqlandi.




a) $Q_{\min}=-17,74 \text{ N}$, $X_{\min}=1,745 \text{ m}$, $Q_{\max}=18,31 \text{ N}$, $X_{\max}=0,03 \text{ m}$




b) $Q_{\min}=-6,92 \text{ N}$, $X_{\min}=1,953 \text{ m}$, $Q_{\max}=7,61 \text{ N}$, $X_{\max}=0,044 \text{ m}$

9–rasm. Teshikli quvur (a) va shnekning (b) ko‘ndalang kuchlari epyurasi

Teshikli quvur va shnekni hisoblash sxemasi 10 va 11 rasmlarda natijalari esa 1-jadvalda keltirilgan.



10–rasm. Teshikli quvur sxemasi



11–rasm. Shnekni hisoblash sxemasi

Teshikli quvurning xavfli qismidagi tangensial kuchlanishning hisoblangan qiymatlari $\tau_{\max}^a = 20,5 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2 \ll [\tau]$ va aylanish burchagi $\varphi_{\max}^a = 0,045^\circ < [\varphi] = 1^\circ$, shnek uchun esa $\tau_{\max}^{sh} = 5,33 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2 \ll [\tau]$ va aylanish burchagi $\varphi_{\max}^{sh} = 0,133^\circ < [\varphi] = 1^\circ$.

Umuman olganda, teshikli quvur va shnekni matematik modellashtirish egilish, egilish momentlari, ko‘ndalang kuchlarni epyuralarini o‘rnatish imkonini berdi.

Kritik tezliklarni hisoblashda analitik hisoblashlarni kamaytirish uchun ko‘chishlar ko‘rinishidagi chekli ayirmalar usulidan foydalanish mumkin. Hisoblash to‘rtta erkinlik darajasiga ega bo‘lgan balkali element yordamida amalga oshirilgan.

Teshikli quvur va shnekni dinamik tahlil qilish metodikasini ifodalab beramiz. Yuklama va valning siljishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni valning egilishidagi energetik funksionalni ko‘rib chiqish orqali olish mumkin.

$$I = \frac{1}{2} \int_0^l \int_0^l \left[EI \left(\frac{d^2 w}{dx^2} \right)^2 - 2f(x,t)w - m_0 \left(\frac{dw}{dt} \right)^2 \right] dx dt . \quad (9)$$

Bu yerda E – elastiklik moduli; I – ko‘ndalang kesimning inersiya momenti; m_0 – uzunlik birligiga to‘g‘ri kelgan konstruksiya massasi; f – uzunlik birligiga to‘g‘ri kelgan taqsimlangan yuklama.

Ko‘rib chiqilayotgan val S elementlarga bo‘lingan bo‘lsin. U holda (9) energetik funksionalni har bir elementning energetik funksionallari yig‘indisi ko‘rinishida yozib olish mumkin.

U holda tenglama shart bajarilganda quyidagi yechimga ega bo‘ladi:

$$([K] - \omega^2 [M])\{Q_0\} = 0 . \quad (10)$$

Bu tenglik ω ning *xususiy burchak chastotalari* – val aylanishining kritik tezligi bo‘lgan ma‘lum qiymatlarida o‘rinli bo‘ladi.


1–jadval

Teshikli quvur va shnekni parametrlari


№	Parametrlar nomlari	Teshikli quvur	Shnek
1.	Tashqi diametri D , m	0,125	0,04
2.	Ichki diametri d , m	0,116	0,033
3.	Quvurning qalinligi $\delta=(D-d)/2$, m	0,0045	0,0035
4.	Uzunligi l , m	1,8995	1,9669
5.	Inersiyani qutub radiuslari $R=(d+\delta)/2$, m	0,06025	0,01825
6.	Materialni mumkin bo‘lgan qarshiligi (po‘lat 45), $[\tau_k]$, N/m ²	$1029,698 \cdot 10^5$	$1029,698 \cdot 10^5$
7.	Materialning elastiklik moduli G , N/m ²	$8 \cdot 10^{10}$	$8 \cdot 10^{10}$
8.	Ortiqcha yuk koeffisientli $M_k \max, k=2, N \cdot m$ nominal aylanish momenti bo‘yicha qabul qilinadigan maksimal aylanish momenti	77,95	13,0
9.	Inersiyani qutub momenti $\mathcal{J}_r = \pi \cdot (D^4 - d^4) / 32$, m ⁴	$2,29061 \cdot 10^{-6}$	$1,36961 \cdot 10^{-7}$
10.	Qarshilikni qutub momenti $W_r = \mathcal{J}_r / R$, m ³	$3,80184 \cdot 10^{-5}$	$7,50469 \cdot 10^{-6}$
11.	Kuchlanish $\tau_{\max} = M_{k\max} / W_r$, N/m ²	2050322,4	1731140,2
12.	Mustahkamlik zahirasi koeffisienti $K_p = [\tau_k] / \tau_{\max}$	50,2	59,5
13.	Aylanishdagi nisbiy burilish burchagi $\theta_{\max} = M_{k\max} / (G \cdot \mathcal{J}_r)$, rad/m	0,00043	0,00119
